

“YOSHLARNING MA’NAVIY-AXLOQIY TARBIYASIDA ADABIYOTNING TA’SIRI VA AHAMIYATI” MAVZUSIDAGI LOYIHA

Loyiha rahbari: f.f.n, dotsent G. Ashurova

Tadqiqotning maqsad va vazifalari: Loyihasining asosiy maqsadi har bir yoshdagi mavjud shaxsiy-ijodiy imkoniyatlarni mumkin bo‘lgan darajada ijtimoiy foydali faoliyatning eng faol ko‘rinishlari darajasiga yetkazishdan, uni yuksak ma’naviyatli shaxs darajasiga ko‘tarish uchun o‘z imkoniyatlari doirasida shart-sharoit yaratish va amaliy yordam berishdan iboratdir. Ma’naviy merosimizning mumtoz namunalari va ularning ijodkorlari haqida aniq faktlarga asoslangan ilmiy xulosa va natijalar bayon etiladi.

Loyihaning qisqacha tavsifi: O‘tgan davr mobaynida o‘zbek adabiyoti tarixida yorqin iz qoldirgan yangi nomlar kashf etildi, ularning adabiy merosi tadqiq qilinib, ilmiy muomalaga kiritildi, o‘nlab adabiy-tarixiy manbalar matnshunos olimlarimiz tomonidan nashrga tayyorlandi.

O‘zbek adabiyoti tarixini mustaqillik mafkurasi va sof ilmiy yondashuvlar, tarixiy haqiqatlar asosida yoritish, shakllangan ilmiy muhitda har bir fakt va dalilni ilmiy ekspertizadan o‘tkazib, yangi faktik materiallar bilan boyitish nazarda tutilgan. Turkiy xalqlar adabiyoti tarixining ajralmas tarkibiy qismi bo‘lgan o‘zbek adabiyoti tarixining ko‘p jildlik monografiyasini yaratish jahon turkologiya fanining yangi bosqichga ko‘tarilishiga olib keladi. Natijada yangicha talqinlarga asoslangan, aniq faktlar bilan dalillangan ilmiy risolalar, o‘quv qo‘llanmalar yaratiladi.

Bu ilmiy risolalar, o‘quv qo‘llanmalar oliy ta’lim bosqichlarining filologiya fakultetlari, adabiyotshunos olimlar, doktorant va ilmiy izlanish olib borayotgan soha vakillari uchun qimmatli manba bo‘lib xizmat qiladi. Shuningdek, o‘zbek xalqining o‘z kechmish yo‘li, adabiy merosi, ma’naviy qadriyatlarini o‘rganishda ham monografiya asosiy qo‘llanma vazifasini o‘taydi.